

ISHLAB CHIQARISH LOGISTIKASI

Saidova Feruza Kamolovna

BuxDU Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi

Shermuhhammadov Shuhrat

Buxoro davlat unversiteti 4-bosqich Agrobiznes va investitsion faoliyat yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA: Maqolada logistikaning iqtisodiy mohiyati, uni mintaqa iqtisodiy salohiyatining oshirishdagi o'rni haqida fikr yuritildi, foyda ko'lami va qo'shimcha qiymatini oshirishdagi o'rni o'rganildi. Ishlab chiqarish logistikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritildi. Transport xizmati, saqlash, qadoqlash, hujjatlashtirish va boshqa vositachilik munosabatlari va harakatlarning samaradorlik ko'rsatgichlari tahlil etildi. Korxonalar orasidagi raqobatbardoslikni shakllantirishda ishlab chiqarish logistikasining ta'siri o'rganildi. Ishlab chiqarish - logistikaning asosiy sohalaridan biri hisoblanib, korxonada faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi yuk almashinuvi yoki bir korxonaning sexlari orasidagi almashinuvni bevosita logistikaga bog'lash o'rinli bo'ladi.

Kalit so'zlar: logistika, ishlab chiqarish, boshqaruv logistikasi, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish bo'g'inlari, raqobatbardoshlik, saqlash va transport xizmati, logistika zanjiri.

ANNOTATION: The article discussed the economic essence of logistics, its role in increasing the economic potential of the region, studied its role in increasing the scope of profit and added value. The specific features of production logistics were discussed. The performance indicators of transport service, storage, packaging, documentation and other intermediary relations and activities were analyzed. The impact of production logistics on the formation of competition between enterprises was studied.

Key words: logistics, production, management logistics, production process, production link, competitiveness, storage and transport service, logistics chain.

Logistika (yun. logistike – hisoblash, muhokama san'ati) – 1) matematik mantiq tushunchasining sinonimi; 2) B. Rassel va uning maktabi vakillarining asarlarida bayon etilgan matematik mantiq taraqqiyotidagi bosqichning nomi. Nazariy matematikaga qarama-qarshi qo'yiladigan hisoblash va geometrik o'lchovlar „san'ati“ qadimiy matematikada L.deb atalgan. G. V. Leybnits „L.“ va matematik mantiq terminlarini o'zi ishlab chiqqan xulosa chiqarishdagi hisobning sinonimi sifatida qo'llagan. Uning g'oyalari hoz. zamon matematik mantiqda o'zining to'liq ifodasini

topgan. „L.“ tushunchasi logistik metod (formal mantiqni formallashtirilgan tillar nazariyasi yordamida bayon etish usuli), logistik tizim (formal tizim) va boshqa ma'nolarni ham anglatadi. Logistikaning asl maqsadi kam xarajat qilib, ko'p foyda olish va yetarli natijaga erishishdi. Logistika— tovar va ma'lumotlar oqimini ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarida boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Logistikaning maqsadi xarajatlarni kamaytirish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir.

Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida materiallar oqimi harakatini tartibga keltirish, ishlab chiqarish jarayonlari logistikasining tub mohiyati hisoblanadi. Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichidagi materiallar oqimi harakatining muvofiqlashuvi yuqorida keltirilgan jarayondagi birlamchi e'tiborga olinishi zarur bosh obyekt hisoblanadi. Materiallar oqimi birlamchi xomashyo manbasidan so'nggi iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olgan yo'l davomida bir qator ishlab chiqarish bo'g'inlaridan o'tib boradi. Ushbu bosqichda materiallar oqimi boshqaruvi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, ishlab chiqarish logistikasi nomi bilan yuritiladi. Ishlab chiqarish logistikasida ishlab chiqarish jarayoni va undagi metodlar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, muomala sohasining samarali faoliyati, ishlab chiqarish vositalari bilan ulgurji savdoning keng rivojlanishi, ishlab chiqarish texnikasiga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ri aloqalar, hududlarning xalq xo'jalik tarmoqlari, aksiyadorlar birlashmalari, turli mulk shakllaridagi ishlab chiqarish va tijorat sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi transportning sifati bilan ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish bilan birga vatanimizda logistika sohasida bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlari sohasida ilg'or yo'nalishlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Moddiy oqim, xom-ashyoning birinchi manbasidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan yo'lida qator ishlab chiqarish bo'g'inlaridan o'tadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish, o'ziga xos xususiyatlariga ega, va ishlab chiqarish logistikasi deb ataladi.

“Ishlab chiqarish” atamasining ma'nosini eslatib o'tamiz. Ma'lumki jamiyat ishlab chiqarishi moddiy va nomoddiy qismlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish logistikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlarni ko'rib chiqadi. Ishlab chiqarish logistikasining maqsadi bu moddiy boyliklar yaratuvchi yoki saqlash, qadoqlash, joylash kabi moddiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar ichidagi moddiy oqimlarni optimizatsiyalashtirishdir. Ishlab chiqarish logistikasida

o'rganiladigan obyektlarning tavsifiy belgisi –bu ularning hududiy ixcham joylashishidir. Adabiyotlarda ularni “logistikaning orol obyektlari”deb ham atashadi.

Ishlab chiqarish logistikasi doirasidagi logistik jarayon ishtirokchilarini ichki ishlab chiqarish munosabatlari bog‘lab turadi (tovar-pul munosabatlari bilan bog‘langan makrodarajadagi logistik jarayon ishtirokchilaridan farqli ravishda).

Ishlab chiqarish logistikasida ko‘riladigan logistik tizimlar, ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari nomi bilan yuritiladi. Ularga: sanoat korxonalarini, ombor inshootlariga ega ulgurji savdo korxonalarini, xo‘jalik hamda fermer xo‘jaliklarini va boshqalarni kiritish mumkin.

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarini mikro va makro darajalarda ko‘rib chiqish mumkin.

Makrodarajada ishlab chiqarish logistik tizimlari makrologistik tizimlarning unsurlari sifatida namoyon bo‘ladilar. Ular moddiy oqimlar manbalari bo‘lib, ushbu tizimlar ishining bir tekisborishini ta‘minlaydilar. Makrologistik tizimlarni tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvi, ularning ichidagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari ishlab chiqaradigan mahsulotning assortimenti va miqdorini tez o‘zgartira olish qobiliyatiga bog‘liq.

Mikrodarajadagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari, bir-biri bilan o‘zaro munosabatda va aloqalarda bo‘lib, ma‘lum birlikni, butunlikni vujudga keltirgan tizimchalar qatoridir. Bu tizimchalar: xaridlar, omborlar, zaxiralar, ishlab chiqarishga xizmatko‘rsatish, transport, axborot, sotish va kadrlardir. Ular moddiy oqimni tizimga kirishi, undan o‘tishi va chiqib ketishini ta‘minlaydilar. Logistika konsepsiyasiga muvofiq ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarining yaratilishi, korxonada ichidagi ta‘minot, ishlab chiqarish va sotish bo‘g‘inlarining rejaları va ishlarini doimiy ravishda o‘zaro kelishilishi va to‘g‘rilanib borishi imkoniyatini ta‘minlashi lozim.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik konsepsiyasi quyidagi asosiy holatlarni o‘z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;
- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarish uchun ortiqcha vaqtdan voz kechish;
- iste‘molchi buyurtmasi bo‘lmagan mahsulotlarni ishlabchiqarishdan voz kechish;
- uskunalarni to‘xtab turishini yo‘q qilish;
- sifatsiz mahsulotlarni yo‘q qilish;
- xo‘jalik ichidagi noratsional tashishlarni yo‘q qilish;
- yetkazib beruvchilarni hamkorlarga aylantirish.

Logistikadan farqli o‘laroq ishlab chiqarishni tashkil etishning an’anaviy konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

- mahsulotni iloji boricha yirik partiyalarda ishlab chiqarish;
- “har extimolga qarshi” moddiy resurslarning maksimal katta zaxirasiga ega bo‘lish.

Konseptual hollarning mazmuni shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarishni tashkil etishning an’anaviy konsepsiyasi “sotuvchi bozori” sharoitlari uchun eng qulay bo‘lsa, logistik konsepsiya “xaridor bozori” sharoitlari uchun eng qulaydir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag‘batlantiruvchi tizimlarida biri hisoblanadi.

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari doirasidagi moddiy oqimlarning boshqaruvi har xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usullardan, bir-biridan prinsipial farq qiluvchi, ikkita asosiysini alohida ko‘rib chiqish lozim, bular itaruvchi va yetaklovchi boshqaruv usullaridir.

Birinchi variant “rag‘batlantiruvchi tizim” deb nom olgan, va uning ishlab chiqarishni tashkil etish tizimidir. Moddiy oqim, ishlab chiqarishni boshqarishning markaziy tizimidan kelgan buyruqqa binoan oldingi bo‘g‘indan iste‘molchi tomon “itarib chiqariladi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ishlab chiqarish logistikasi kompaniyaning umumiy muvaffaqiyatiga be‘vosita ta’sir ko‘satadi. Samarali ishlab chiqarish logistikasi yordamida, ishlab chiqaruvchilar o‘z resurslarini maksimal darajada samarali ishlatishi, mahsulotni o‘z vaqtida yetkazib berishi va bozor talablariga tez javob bera olishlari mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarish logistikasi nafaqat tashqi omillarni, balki ichki jarayonlarni ham yaxshilashga imkon beradi, bu esa kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi. Ishlab chiqarish logistikasining asosiy maqsadi – ishlab chiqarish jarayoninig samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samiyeva, G. T. (2022). Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4(3), 122-126.
2. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, Volume 16, April 2022, Pages 79-83
3. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.
4. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* 7 (2021): 96-100.

5. Toxirovna, Samieva Gulnoza. "Farmers-Food Sustainability Services." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* (2021): 899-904.
6. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* 7 (2021): 96-100.

